

QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2026-yil 2-son)



FILOLOGIYA  
PHILOLOGY

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA “PAYT” KONTSEPTINI TASVIRLASHDA  
FRAZELOGIZMLARNING METAFORA YORDAMIDA IFODALANISHI**

<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.064>

*Zoirov Alisher Abdugapporovich*

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti*

[olmos1978@inbox.ru](mailto:olmos1978@inbox.ru)

+998974600705

**Annotasiya:** *Maqolada “payt” ma’nosini ifodalovchi frazeologizmlarning mantiqiy-semantik modeli mubolag‘aga, metonimiyaga va aralash ko‘chma ma’no hosil qiluvchi stilistik turlarga xos ko‘chma ma’no qilishi va ularning ko‘p qismi metafora bilan ifoda qilinishi bir nechta misollar orqali tahlil qilinadi. Metafora vazifasini bajaruvchi, paytni ko‘rsatuvchi, payt ma’nosiga ega bo‘lgan frazeologizmlarda yorqin obrazlilik, emotsionallik, baholovchi xususiyatlari, “obrazli qismlari”ga ega bo‘lgan konnotativ ma’no berish imkoniyatlari mavjudligi tadqiq qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *payt ma’nosi, frazeologizmlar, mantiqiy-semantik model, metafora, metonimiya, mubolag‘a, ko‘chma ma’no, obrazlilik, emotsionallik, konnotativ ma’no, stilistik vositalar.*

**METAPHORICAL REPRESENTATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN  
THE CONCEPTUALIZATION OF TIME IN GERMAN AND UZBEK**

**Abstract:** *This article analyzes metaphorical phraseological units expressing the concept of time in German and Uzbek. It shows that such expressions function not only descriptively but also convey emotional and evaluative meanings. The study focuses on logical-semantic and cognitive mechanisms forming figurative meanings through metaphor, hyperbole, and metonymy. The analysis demonstrates that temporal phraseology largely relies on metaphorical models reflecting culturally shaped perceptions of time. The findings highlight the important role of metaphorical phraseology in modeling temporal experience and shaping the linguistic worldview through imagery and connotative meanings.*

**Keywords:** *phraseology, time concept, metaphor, German and Uzbek languages, figurative meaning, connotation, cognitive semantics, temporal expressions.*

## МЕТАФОРИЧЕСКОЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ПРИ КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИИ ВРЕМЕНИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация:** В статье анализируется метафорическое выражение фразеологических единиц, представляющих концепт времени в немецком и узбекском языках. Показано, что такие единицы выполняют не только описательную, но и экспрессивную и оценочную функции. Особое внимание уделяется логико-семантическим и когнитивным механизмам формирования переносного значения посредством метафоры, гиперболы и метонимии. Анализ языкового материала показывает, что большинство фразеологизмов, выражающих временные значения, основано на метафорическом переосмыслении и отражает культурно обусловленные способы восприятия времени в языковой картине мира.

**Ключевые слова:** фразеология, концепт времени, метафора, немецкий и узбекский языки, переносное значение, коннотация, когнитивная семантика, временные выражения.

### KIRISH

Nemis va o‘zbek tillaridagi paytni ifodalovchi frazeologizmlar nafaqat tasvirlovchi, izohlovchi, anglashga undovchi kabi asosiy vazifalarni, balki ekspressiv, emotsional, tavsiflovchi vazifalarni ham bajarib, ular lingvistik nuqtai nazardan emotsionallik, ekspressivlik, obrazlilik, tavsifiylik kabi konnotativ komponentlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Frazeologik mazmunning konnotativ komponentlarini shakllantirish – bu muayyan mantiqiy va psixologik jarayon bo‘lib, lingvistik asosga ega. Bu jarayon biz tomondan mantiqiy-semantik modellarga jamlangan. Frazeologizmlarning ”payt” ma’nosini anglatuvchi mantiqiy-semantik modellari bir tomondan frazeologik materialni tizimlash va umumlashtirishga yordam beradi, ikkinchi tomondan esa – frazeologik obrazlilikning shakllanish jarayoni va qoidalarini aks ettiradi.

Nemis va o‘zbek tillaridagi “payt” ma’nosini ifodalovchi frazeologizmlarning mantiqiy-semantik modeli mubolag‘aga, metonimiyaga va aralash ko‘chma ma’no hosil qiluvchi stilistik turlarga xos ko‘chma ma’no hosil qilishi ham mumkin. ”Payt” ma’nosiga ega bo‘lgan frazeologizmlarning ko‘p qismi metafora bilan ifodalanadi.

Metafora esa ontologik jihatdan inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, tafakkurning tabiiy til orqali ifodalangan mahsuloti sifatidagi murakkab va o‘ziga xos fenomendir.

Uning universal xususiyati borliq va paytda, til strukturasi va uning vazifalarida namoyon bo‘ladi, chunki bu kabi tilning stilistik vositasi yordamida yorqin va esda qolarli darajadagi obrazlar yaratiladi, u bir vaqtning o‘zida nominatsiya vositasi ham hisoblanadi hamda muayyan etnosning “borliq tasvirini” va milliy etnik stereotiplarni akkmumlyatsiya va translyatsiya qilish vositasi ham hisoblanadi [3, 108].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Metafora nafaqat stilistik figura, balki u insonning kontseptual omili bilan ham bog‘liq bo‘lib, nafaqat til vositasi, balki tafakkur va harakat-hodisa bilan ham bog‘liq [2, 34]. Inson turli voqeliklarni turli assotsiatsiyalar bilan bog‘lab, turli misollar hosil qiladi va metafora orqali ifodalaydi, masalan: *vaqt - eng yaxshi tabib – die Zeit heilt alle Wunden*. Metafora haqidagi nazariya kognitiv fenomen hisoblanib, voqeliklarni ongga bog‘lab tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Borliq tasvirining fragmentlari metafora orqali ifodalanishi va metaforaning hosil bo‘lishi jarayoni va kontseptual metaforalarning ifodalanishi yo‘llarini tadqiq qilish natijasini ta’kidlash joizki, universal metaforalar turli hil bo‘ladi, ular turli til va madaniyatlarda turlicha namoyon bo‘ladi va shu asosda metafora madaniy jihatdan o‘ziga xos xususiyatga ega. Masalan, *vaqt – eng yaxshi tabib* metaforasi turli til va madaniyatlarda uchraydi, lekin *buni vaqt ko‘rsatadi* metaforasi rus va o‘zbek tillari va xalqlari uchun xos. Kontseptual metaforalar tizimini o‘rganish orqali olimlar fundamental madaniy qadriyatlar ushbu madaniyatning metaforalar tizimi va asosiy tushunchalari bilan o‘zaro bog‘liq, metaforalar bilan dunyoni anglash va bilish kabi lingvomadaniy umumiylik mavjud degan fikrga keldilar [4, 163-181]. Ta’kidlash o‘rinliki, biror bir kontsept uchun asosiy deb tanlab olingan metafora ushbu kontseptning faqat bir qismini tasvirlaydi xolos, kontseptning boshqa qismi esa ochiq qolaveradi. “Vaqt – pul”, “urush – janjal” kabi metaforalar qanchalik tilimiz uchun odatiy hol bo‘lib qolsa ham, ularning birinchi komponenti boshqa metaforik obraz orqali ifodalanishi ham mumkin.

Ushbu maqolada borliqdagi barcha ma’lumotlar ongimiz orqali shakllantirilgan, mazkur shakllar metaforik xarakterda va tildagi ma’lumotlar orqali shakli qayta qurilishi mumkin ekanligiga to‘xtalamiz. Shunday qilib, metaforalarni tadqiq qilish jarayonida quyidagi tushuncha hosil qilish mumkin: mental (kontsept) narsa – moddiy (til) orqali tasvirlanadi.

Ikkinchi tomondan, til vositalarining muayyan kontsept bilan munosabatga kirishuvi natijasida moddiy narsani (til birligini) mental (kontsept va uning metaforasi) narsa orqali tadqiq qilish mumkin.

Shu ma’noda N.D.Arutyunovanning ta’kidlashicha, metafora – bu aniq bir narsa yoki hodisaning o‘ziga xosligini belgilash va ifodalashdir. “Metafora – bu barcha mustaqil va yordamchi so‘zlarning ma’nosini ko‘chirish vositasi, shuning uchun tilni “xiralashgan” metaforalar lug‘ati deyishga hamma asoslar bor” [1, 24]. Shunga qaramasdan metaforalarni o‘rganishdan asosiy maqsad, ularning tilga emas, ongga, tafakkurga tegishli ekanligini isbotlashdir. “Vaqtning ketdi, baxting ketdi” deyilganda baxtli bo‘lish uchun vaqtdan unumli foydalanish kerakligi uqtirilmoqda.

N.D.Arutyunovanning fikricha, “butun olam metaforalardan iborat ekan degan fikr ham hosil bo‘ladi. Bu yerda va u yerda, hamma joyda dunyoda va kontseptlar makonida nimanidir tasvirlash, nimanidir ko‘chma ma’nosini ifodalash harakati hukm surmoqda” [1, 20].

Yuqoridagi fikrni inobatga olib, nemis va o‘zbek tillaridagi “PAYT” kontseptining umumiy frazeologik modelini vaqt – bu harakatdir deb belgilash mumkin. Bu modelni biz uchta obrazli maydonga bo‘lishni taklif qilamiz, ya’ni: *die Zeit fließt – vaqt suvdek o‘tib ketmoqda*,

*die Zeit dreht sich im Kreise – vaqt aylana bo‘yicha harakatda, die Zeit steht still – vaqt to‘xtab qoldi.*

## NATIJALAR

Agar paytni harakat deb anglasak, u holda bu maydonning yadrosini quyidagi metaforalar tashkil qiladi: *vaqt o‘tmoqda – die Zeit vergeht*, ularning asosini *bir zumlik, tez o‘tib ketishlik* obrazi tashkil qiladi va ulardan har ikki tilga xos quyidagi so‘z shakllari hosil qilinadi: *o‘tgan, o‘tayotgan, o‘tib ketayotgan, vergangen, verganglich, Vergangenheit, Vergänglichkeit*. Ushbu maydonning yadrosiga yana quyidagi metaforalar tegishli: *die Zeit läuft – vaqt tez o‘tib ketmoqda, der Lauf der Zeit – vaqtning tez o‘tishi, Zeit fließt – vaqt suvdek o‘tib ketmoqda* kabi metafora periferiyada joylashgan va shu sababli lug‘atlarda ko‘rsatilmagan. Metaforaning periferiyada joylashganligi, ularning kam qo‘llanishini anglatmaydi, ularning ajratilganligi – emotsionalligi va ekspressivligidandir. Quyidagi, *die Zeit fließt – vaqt suvdek o‘tib ketmoqda* metaforasidagi vaqt suvning oqishiga qiyoslanayapti, vaqtning va suvning oqishini inson to‘xtata olmasligi obrazli ravishda ifodalanyapti. Taxmin qilsa bo‘ladiki, kontseptual metaforaning obrazlilik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, u yadrodan uzoqlikda joylashgan bo‘ladi. Bunday maydonning periferiyasida *vaqt uchib o‘tmoqda – die Zeit verfliegt* kabi metaforalar ham joylashgan. Nemis tilining bu maydonida *die Zeit wandelt, die Zeit entflieht* kabi o‘zbek tilida uchramaydigan metaforalar mavjudligi kuzatildi.

Agar *vaqt – harakat demakdir – die Zeit ist Bewegung* metaforasi atrofidagi metaforalarni kuzatsak, u holda mantiqiy ravishda *die Zeit dreht sich im Kreise – vaqt aylana bo‘ylab harakat qilmoqda* kabi stilistik til vositasini aniqlaymiz. Bu til vositalari ikkinchi maydonni hosil qiladi. Bu yerda vaqt o‘tishi suv oqishi bilan emas, balki aylana (charxpalak) bo‘ylab harakat bilan obrazli ravishda ifodalanmoqda. Lekin “harakat” kontseptida harakat bir yo‘nalishda amalga oshirilishi lozimligi ko‘rsatilgani yo‘q. Masalan, erta va kech vaqtning o‘zaro almashinuvi insonning birinchi kuzatuv tajribalari sarasiga kiradi.

Uchinchi maydon *die Zeit steht still – vaqt to‘xtab qoldi* ilgarigi *vaqt – harakatdir* degan iborani rad etmaydi, balki “harakat” metaforik maydonga tegishli ekanligini bildiradi, chunki har ikki fe‘l – *to‘xtab qolmoq va stehenbleiben* mazmunida harakat semasi mavjud.

Yuqoridagi uchta maydonga kirmay qolgan, so‘zning ko‘chma ma‘nosida qo‘llanilgan ma‘noli mubolag‘alar ham mavjud, masalan: bayramga yaqin qoldi, yangi asr bo‘sag‘asida, vor der Tür, an der Schwelle va shu kabilar. *Bo‘sag‘asida* so‘zi yordamida hosil qilinadigan mubolag‘a sintaktik jihatdan birikma hosil qiladi, mazmun jihatdan esa *yangi davr, yangi hayot* boshlanishini anglatadi, masalan: *yangilanish, bahor fasli bo‘sag‘asida; XXI asr bo‘sag‘asida*. Hatto borliq mazmunini anglatuvchi *yo‘lda, yer yuzida, maydonda* kabi so‘zlar hosil qilgan qurilmalar ham borliq va vaqtga oid bo‘lgan metafora hosil qila oladi. Nemis tilidagi *an der Schwelle* predlogli qurilma metafora hosil qilganda, o‘zbek tilidan farq qilib, faqat salbiy ma‘nodagi obrazli birikma va mazmun hosil qiladi, masalan: *an der Schwelle des Todes*.

Mubolag‘a asosida hosil qilingan frazeologizmni tushunish – so‘zning o‘z ma‘nosi va iboralarning qaysi bir qismi asotsiativ tarzda ko‘chma ma‘no berishini anglashdan iborat.

Metafora biz uchun ikkilamchi nominatsiya kabi til hodisasi emas, balki ilgarigi nomlangan hodisaning konnotatsiya vositasidir.

Real hayot va borliqda mavjud bo‘lmagan absurd voqeliklarning ifodasi *alogizmlar* deb ataladi, masalan: *tuyaning dumi yerga tekkanda, xapshanba kuni, wenn der Fuchs und der Hase einander “Gute Nacht” sagen, wenn Pfingsten und Ostern auf Tag fallen*. Ta’kidlash lozimki, barcha alogizmlar – metafora hisoblanadi. Qarama-qarshi ma’nolar ifodasi, badiiy usul sifatida frazeologizmlar orqali amalga oshiriladi. Obrazlilik asosi mavjud bo‘lgan alogizmlar yordamida hosil qilingan frazeologizmlar obrazli, ehtirosli, baholovchi xususiyatga ega.

*Tuyaning dumi yerga tekkanda* (tuyaning dumi yerga tegmaydi), *hapshanba kuni* (haftaning hapshanba kuni mavjud emas), *xo‘rozlar tuxum qo‘yganda*, (xo‘rozlar tuxum qo‘ymaydi), *wenn der Hahn Eier legt* (xo‘rozlar tuxum qo‘ymaydi) kabi irreal holatlar “*hech qachon*” mazmundagi aktual payt ma’nosini shakllantiradi, bu kabi barcha omillar mantiqan asoslangan va mohiyati ochib berilgan bo‘ladi.

Bu kabi frazeologik birikmalarining umumiy ko‘chma ma’nosi bilan prototip mazmuni o‘rtasidagi qarama-qarshilik sifat qarama-qarishiligi deb ataladi va an’anaviy oksyumoronga mos tushadi.

*Ko‘z ochib yumguncha – ohne mit dem Wimper zu zucken, o‘qday uchib kelmoq – wie eine Rakete, chaqmoq chaqqudek – blitzschnell* kabi frazeologizmlarning obrazli shaklida giperbolaga oid metafora o‘rin olgan va mantiqiy jihatdan tezlikning odatdan tashqari ko‘paytirib, oshirilishini ifodalash – “*juda ham tez*” kabi mazmunga olib keladi.

*Vaqtni cho‘zish – das Spiel verzögern, kechagi kunni izlamaoq – den gestrigen Tag suchen, vaqtni bekorga o‘tkazmoq – die Zeit totschiagen* kabi obrazli shakllar ham metafora hisoblanadi, mazkur frazeologizmlarda inson tomonidan vaqtga ta’sir o‘tkazilishi g‘oyasi mavjudligini ko‘rsatishga harakat qilingan. Lekin payt ma’nosidagi borliq tasvirini ifodalaovchi frazeologizmlarda inson vaqtdan tirik mavjudotga nisbatan muomala qilayotganday, lekin inson tashabbus ko‘rsata olmaydigan passiv mavjudot sifatida tassavvur hosil qiladi. *Vaqtni cho‘zish – das Spiel verzögern, kechagi kunni izlamaoq – den gestrigen Tag suchen, vaqtni bekorga o‘tkazmoq – die Zeit totschiagen* kabi mubolag‘alarda insonning vaqtni cho‘zishi, voqeliklar payti ustidan hukmronlik qilishiga bo‘lgan noo‘rin harakat ifodalangan.

## MUHOKAMA

Lisoniy jihatdan ikki komponentli mantiqiy-semantik model asosida qurilgan metaforaga xos ma’no ko‘chirish metonimiyaga xos ma’no ko‘chirishdan o‘zining emotsionalligi, ekspressivligi va baholash imkoniyatlari bilan farq qiladi. *Vaqtni cho‘zish – das Spiel verzögern, kechagi kunni izlamaoq – den gestrigen Tag suchen, vaqtni bekorga o‘tkazmoq – die Zeit totschiagen* kabi frazeologizmlarning ichki shakli perzonifikatsiya bilan bog‘liq. Biz *vaqtni cho‘zayotgan, kechagi kunni izlayotgan, vaqtni bekorga o‘tkazayotgan, vaqtga bo‘sinishni istamayotgan insonni* ko‘z oldimizga keltiramiz.

Hozirgi zamon tilshunosligida metafora, simvol va obrazni ajratish muammosi mavjud. Ko‘pgina tadqiqotchilar simvol obraz bilan bevosita bog‘liq degan fikr bildiradi. Simvol – belgi,

metafora kabi moddiy narsa, lekin metaforadan farqli o‘laroq, birmuncha chuqur, keng va ko‘p qirrali. Masalan, nemis va o‘zbek tilida (*vaqt*) *soat* so‘zi taqdir bilan bog‘langan. Bu holat quyidagi frazeologizmlarning obrazli shakli orqali namoyon bo‘ladi: *o‘ladigan vaqt-soati – die Todesstunde*, *hisob-kitob vaqti – die Stunde der Rache*, *die Stunde der Vergeltung*, *ajrimlik vaqti – die Stunde der Einsamkeit*, *xoru-zorlik vaqti – die Stunde der Not*, *havf-xatarli vaqtda – die Stunde der Gefahr*, *unutib yuborganlik vaqti – die Stunde der Vergessenheit*, *kelishuv, murosai-madora vaqti – die Stunde der Demut*.

Simvol va metafora frazeologizmlarning payt mazmunini ifodalovchi obrazli asosi hisoblanib, avvalombor yorqin, taassurot qoldiruvchi, ko‘rgazmali, hissiyotli obrazlarni yaratib, borliqning lisoniy-davriy tasvirini modellashtirishga yordam bergan holda estetik vazifani bajaradi. Ma‘lum bo‘ladiki, inson paytni turlicha his qiladi va bu narsa borliqning lisoniy-davriy tasvirida namoyon bo‘ladi. Ba‘zi kimsalar *nima bo‘lsa bo‘lar, bo‘ladiga narsa baribir bo‘laveradi – was sein soll, schickt sich wohl* desa, boshqa ba‘zi insonlar esa falsafiy fikr yuritib: *tong otguncha – über Nacht kommt Rat* deydilar, yana kimdir *ishni oxirigacha yetkazib qo‘ymoqchi bo‘lsa – die Sache zu Ende führen*, yana birlari deydi: *hechdan ko‘ra kech – für den schlimmsten Fall wird es schon gehen*. Inson milliy jihatdan qaysi millatga tegishli bo‘lishidan qat‘iy nazar, uning borliqdagi voqelikni ruhan qabul qilishi – unig paytga munsabati o‘zgarishi bilan bog‘liq. Paytni qabul qilish asosida antiteza yotibdi, bu antiteza hissiyotni, ehtirolarni, u yoki boshqa voqeliklarga baho berish kabilarni ifodalaydi, antiteza payt parametrlarini tavsiflovchi leksik oppozitsiyalarda o‘z aksini topgan.

Inson *vaqtdan foydalanishi – die Zeit beherrschen* (balki inson *vaqtdan unumli foydalanayapman deb o‘ylashi mumkin*), *vaqtni yo‘qotishi – die Zeit vergeuden*, *vaqtni tejashi – die Zeit sparen*, *vaqtni o‘tkazishi – die Zeit verbringen*, *vaqtni cho‘zishi – sich die Zeit vertreiben* va nihoyat *vaqtni ketkazishi (vaqting ketdi – baxting ketdi) – die Zeit totschiagen* mumkin. Inson *vaqtni o‘ziga nafaqat bo‘ysindirishi*, balki undan foydalanishi mumkin: *vaqtni cho‘zishi – in die Länge ziehen*, *vaqtdan shoshilib foydalanishi – zur Eile drängen*, *vaqtni orqaga surishi – auf die lange Bank schieben*, (birovning) *vaqtini olishi – Zeit in Anspruch nehmen*, lekin, *vaqt nafaqat tez o‘tadi – die Zeit ist nicht zu erreichen*, balki *uni (vaqtni) quvib, yetib bo‘lmaydi – die Zeit ist unerbittlich*, *vaqt yetmaydi ham (vaqtim yo‘q) – die Zeit fehlt*.

Ba‘zan aytish mumkin: *hali vaqt kelgani (bo‘lgani) yo‘q – es ist noch nicht soweit*, *chunki vaqt biz tomonda, u biz uchun ishlayapti – die Zeit arbeitet für uns*, lekin, boshqa bir hollarda: *vaqt bizga qarshi ishlaydi – die Zeit arbeitet gegen uns*. Vaqt doimiy qadriyatlanil eslatgunday bo‘lib, insonga nisbatan foydali bo‘lishi mumkin: *vaqt ko‘rsatadi (davolaydi) – die Zeit heilt alle Wunden*, *vaqt hammasini o‘z o‘rniga qo‘yadi – die Zeit stellt alles zurecht*.

## XULOSA

Shunday qilib, metafora vazifasini bajaruvchi, paytni ko‘rsatuvchi, payt ma‘nosiga ega bo‘lgan frazeologizmlarda yorqin obrazlilik, emotsionallik, baholovchi xususiyatlari, “obrazli qismlari”ga ega bo‘lgan konnotativ ma‘no berish imkoniyatlari mavjud. Ular paytni falsafiy jihatdan chuqur tasavvur qilishga undaydi, borliqning lisoniy-davriy tasvirini shakllantirishda

ishtirok etadi. Frazеologizmlarning metaforik ko‘chma ma‘noni ifodalovchi yuqorida taqdim etilgan mantiqiy-semantik (kognitiv) modellari frazeologik obraz orqali frazeologik materialni umumlashtirish va tizimga solishga yordam beradi va borliqning lisoniy-davriy tasvirining shakllanishini ko‘rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Арутюнова, Н.Д. (2003). Алогичность метафорических полей //Русский язык сегодня: Сб. научных статей / Отв. ред. Л.П. Крысин. М.: Азбуковник.
2. Кубрякова, Е.С. (1992). Проблема представления знаний в современной науке и роль лингвистики в решении этих проблем // Язык и структуры представления знаний. Сборник научно-аналитических обзоров / Отв. ред-ры: Ф.М. Березин, Е.С. Кубрякова. М.: ИНИОН, 162 с.
3. Eismann, W. (2001) Jenseits der Weltbild-Phraseologie: Vergessene psychoanalytische Perspektive in der Phraseologie // Phraseologie Amor. - Aspekte europäischer Phraseologie. Festschrift für Gertrud Graciano zum 60. Geburtstag. Hohengehren. S. 107 - 122.
4. Rohrer, T. (1991). To Plow the Sea: Metaphors for Regional Peace in Latin Amerika // Metaphors and Symbolic Activity, v. 6. P. 163 - 181.